



THE “AS’AS” SYSTEM IN PUBLIC ADMINISTRATION: HISTORICAL ROOTS, ESSENCE, AND MODERN APPROACHES

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Doctor of Historical Sciences (DSc),

Uzbekistan State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

Muhammad Abdulaziz Muhitdinov

Cyber State University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: public administration, as’as, night guards, internal security, public safety, public order, “Suluk al-muluk”, “Nihaya al-jazariy”, law enforcement, prevention, public control.

Received: 04.07.26

Accepted: 05.07.26

Published: 06.07.26

Abstract: This article analyzes the institution of “as’as” (night guards and observers), which served as a crucial link in ensuring internal security within Islamic statehood and historical governance systems. Based on primary sources, the lexical and terminological meanings of the word “as’as” are explained, along with the responsibilities of the head of state in maintaining public peace and safety. Furthermore, the article highlights the continuity between the historical system of night patrol and modern law enforcement agencies, the “mahalla” institution, and public safety concepts.

DAVLAT BOSHQARUVIDA «AS’AS» TIZIMI: TARIXIY ILDIZLAR, MOHIYAT VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Tarix fanlari doktori (DSc)

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Muhammad Abdulaziz Muhitdinov

Cyber davlat universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruvi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq

as'as, tungi qo'riqchilar, ichki xavfsizlik, jamoat tartibi, «Suluk al-muluk», Nihoya al-jazariy», huquqni muhofaza qilish, profilaktika, jamoatchilik nazorati.

davlatchiligi va tarixiy boshqaruv tizimlarida ichki xavfsizlikni ta'minlashning muhim halqasi bo'lgan «as'as» (tungi qo'riqchilar va kuzatuvchilar) instituti tahlil qilingan. Manbalarga asoslangan holda «as'as» so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari hamda davlat rahbarining jamiyatda omonlikni ta'minlashdagi burchlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada tarixiy tungi nazorat tizimining zamonaviy huquqni muhofaza qilish organlari, «mahalla» instituti va jamoat xavfsizligi konsepsiyalari bilan uzviylik jihatlari yoritilgan.

СИСТЕМА «АСЪАС» В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ: ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ, СУЩНОСТЬ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Олтиной Масалиевна Масалиева

Доктор исторических наук (DSc),

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

Мухаммад Абдулазиз Мухитдинов

Cyber государственный университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: государственное управление, асъас, ночные стражники, внутренняя безопасность, общественный порядок, «Сулук ал-мулук», «Нихайа ал-джазари», правоохранительная деятельность, профилактика, общественный контроль.

Аннотация: В данной статье анализируется институт «асъас» (ночные стражники и наблюдатели), являющийся важным звеном в обеспечении внутренней безопасности в системах исламской государственности и исторического управления. На основе источников раскрыты лексические и терминологические значения слова «асъас», а также обязанности главы государства по обеспечению безопасности и спокойствия в обществе. Кроме того, в статье освещены аспекты преемственности исторической системы ночного контроля с современными правоохранительными органами, институтом «махалли» и концепциями общественной безопасности.

Kirish. Davlat boshqaruvida “as’as” tizimi bu nafaqat o’rta asrlar Sharq davlatchiligida, balki bugungi zamonaviy jamiyatlarda ham ichki xavfsizlik, jamoat tartibi va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim poydevorlaridan biridir.

Tarixdan ma'lumki, kuchli va adolatli davlat boshqaruvining muhim poydevorlaridan biri insonlarning tinchligi, mol-mulki va sha'ning daxlsizligini ta'minlashdir. Qadimdan turli sivilizatsiyalar va sharq davlatchiligida jamoat tartibini saqlash hamda tungi xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus institutsional tizimlar yaratilgan. [1] Ushbu tizimlarning eng muhim halqalaridan biri «as'as» (tungi qo'riqchilar va kuzatuvchilar) tizimi hisoblanadi. As'as tizimi hatto Buxoro xonligida XX yuz yillik boshlarida ham mavjud bo'lgan.[2,3] Zamonaviy davlat boshqaruvida ham ichki va tashqi osoyishtalikni saqlash har bir hukumatning bosh vazifasi bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada “as'as” institutining tarixiy mohiyati bugungi kun haqiqatlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil va germeneytika metodlaridan foydalanilgan. Unda “Nihaya al-jazariy”, Fazlulloh ibn Ro'zbehonning “Suluk al-muluk” qo'lyozmalari asosiy manba sifatida olindi.

Tahlil va natijalar. O'rta asrlar Sharq davlatchiligi manbalarida, jumladan, «Nihoya al-jazariy» asarida as'as tushunchasiga aniq ta'rif berilgan. Unga ko'ra, «as'as» so'zi arab tilidagi «asa ya'ussu» fe'lidan olingan bo'lib, biror narsani faol izlash, qidirish ma'nolarini bildiradi. Xuddi izquvar kabi harakat qilib, kechasi odamlarni qo'riqllovchi va aylanib yuruvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Davlat boshqaruvi tizimi nuqtai nazaridan “as'as” tushunchasi quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Harrost (qo'riqchi)larning umumlashmasi: U shahar va qishloqlarning turli nuqtalarida tartibni saqllovchi guruhlarining faoliyatini o'z ichiga oladi.

Tungi xavfsizlik agenti: “As'as” – kechasi ko'chalarni aylanib, fuqarolarning osoyishtiligini qo'riqlaydigan, jamiyatga xavf soluvchi gumonli shaxslar va noqonuniy harakatlarni qidirib topib, fosh qiladigan shaxsdir.

Fazlulloh ibn Ro'zbehon “Suluk al-muluk” asarida quyidagicha yozadi: “Va bu faqir sakkiz yuz sakson oltinchi (886) sanada dorulislom Misri muazzamda Misr podshohi Sulton al-Malik al-Ashraf Qaytboy (Alloh uni rahmat qilsin) bilan suhbatdosh bo'lgan edim. U o'sha vaqtda Misrda o'ttiz yil muddat podshoh bo'lgan edi va g'oyatda maqtovg'a loyiq (go'zal) siyratga ega edi. Ko'p kechalarni bedor o'tkazar, namoz va Qur'on qiroati bilan mashg'ul bo'lardi. Bomdod namozini o'qigach, uning oldiga birinchi bo'lib Misr asasai kirar edi va hech kim undan oldin uning huzuriga kiritilmasdi. As'as tunda sodir bo'lgan voqealarni unga hikoya qilar, tunda sodir bo'lgan har qanday shar va fasodni sultonga arz qilardi. Sulton uni to'g'ri tadbirlar bilan daf qilar, as'as hukmlarini imzolar, voliyga tegishli voliy mazolimni bartaraf etishni buyurar, qoziga yetishi kerak bo'lgan narsalarni yetkazishni tayinlar edi. As'asning

muhim ishlarini bajarib, ehtiyotkorlik ko'rsatib, tungi fasodlarni daf qilgach, boshqa muhim ishlar bilan mashg'ul bo'lar edi. Sultonga ham shunday qilish yarashadi, ya'ni ahli fasod sultonning fasodni daf qilishdagi g'ayratini bilib, fasodni tark etsinlar. Bular as'as tayinlashga tegishli ahkomlardir".

Umar roziyallohu anhuning Madina ko'chalarida kechalari tungi aylanishlar qilib, fuqarolarning holidan xabar olgani va ularni qo'riqlagani bu tizimning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvi konsepsiyasiga ko'ra, sulton (davlat rahbari) va uning hukumati zimmasida fuqarolarning hayotini kechayu kunduz himoya qilish vojib hisoblanadi. Hukmdorning asosiy vazifasi faqatgina tashqi dushmanlardan himoyalanihi emas, balki mamlakat ichkarisida ham mutlaq omonlik muhitini yaratishdir.

Agar davlatda kuchli va adolatli boshqaruv tizimi ishlasa:

«Yomonlar va huquqbuzarlar tunlari buzuqlik hamda gumonli ishlar bilan shug'ullanishga jur'at eta olmaydilar».

Jinoyatchilikning oldini olinadi ya'ni tinchlikni buzuvchi vayronkor kuchlarning rejalari barbod qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash ya'ni jamiyat va davlat pabnaqiga soya soluvchi poraxo'rlik, suiiste'mollik va yashirin jinoyatlarning oldi olinadi.

Natijada har bir fuqaroning mol-mulki, sha'ni va qadr-qimmati davlat tomonidan ishonchli himoya qilinadi.

Tarixiy "as'as" instituti bugungi kunda o'z shaklini o'zgartirgan holda, zamonaviy davlatlarning huquqni muhofaza qilish tizimlarida o'z ifodasini topmoqda. Bu borada quyidagi uzviy bog'liqliklarni ko'rish mumkin:

Huquqni muhofaza qilish organlari: Qadimgi "as'as"larning kechasi ko'chalarni aylanib, tartibni saqlashi va gumonli shaxslarni aniqlashi bugungi kunda Ichki ishlar organlari, patrul-post xizmatlari va profilaktika inspektorlari faoliyati orqali amalga oshirilmoqda.

Hozirgi zamon politsiya yoki militsiya tizimi aynan shu tungi xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash funksiyasining zamonaviy ko'rinishidir.

"Mahalla" instituti va jamoatchilik nazorati: O'zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlashda "mahalla" instituti, "Xavfsiz mahalla" tamoyili va jamoatchilik tuzilmalari (masalan, "qo'riqlash" guruhlar yoki ko'ngilli jamoatchilik posbonlari) qadimgi "as'as" tizimining eng yaqin milliy analogi hisoblanadi. Har bir mahallada tungi tinchlikni saqlash, shubhali shaxslarni o'z vaqtida payqab, tegishli idoralarga xabar berish mahalliy aholi va posbonlar tomonidan amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyalar va (“Aqlli” va xavfsiz shaharlar): Bugungi kunda qorong‘u ko‘chalarni tunda aylanib yuruvchi jismoniy qo‘riqchilar vazifasini ko‘p jihatdan videokuzatuv kameralari, “Xavfsiz shahar” tizimlari, sun‘iy intellekt asosidagi yuzni tanib olish va 24/7 ishlaydigan monitoring markazlari bajarib, xavfsizlikni yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Ular tungi vaqtda ham jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tinmay kuzatib, xavf-xatarlarning oldini olmoqda.

Xulosa. Davlat boshqaruvida “as’as” tizimi – bu shunchaki tarixiy qo‘riqlash xizmati emas, balki har qanday zamonaviy davlatning ham poydevori hisoblangan ichki xavfsizlik va barqarorlik tushunchasining tamal toshidir. Tarixdan ma’lumki, qaysi davrda qo‘riqchilik va ichki nazorat tizimi kuchli, qat’iy va adolatli bo‘lsa, o‘sha davlatda taraqqiyot va osoyishtalik hukm surgan. Bugungi kunda ega bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar, huquqiy mexanizmlar va jamoatchilik nazorati ushbu azaliy an’anani yangi bosqichga ko‘tarib, xalq farovonligi va tinchligini ta’minlashga xizmat qilmoqda..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masaliyeva O. Masaliyeva. (2025). State administration and divans: terms and structure. International Journal Of History And Political Sciences 5 (03), 40-43.
2. OLTINOY MASALIYEVNA MASALIYEVA (2025). BUXORO XONLIGI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI (20 -21-YUZYILLIK BOSHLARI) 07.00.08. -Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Toshkent.
3. Masaliyeva O. (2024). Buxoro xonligi manbashunosligi hamda Vatan va xorijiy tarixshunosligining rivojlanish muammolari (XX – XXI asr boshlari) / Monografiya. – Toshkent: FAST SUPPORT AND RESULT, – 240 b.
4. Fazlulloh ibn Ro‘zbehon (qo‘lyozma). Suluk al-muluk. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institute qo‘yozmasi, №3639. To‘rtinchi fasl.